

“TASDIQLAYMAN”

Namangan shahar Kambag'allikni
qisqartirish va bandlikka ko'maklashish
bo'limi boshlig'i v.b



A.Turg'unov

“17” may 2023-yil

Namangan shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limida
o'tkazilgan navbatdan tashqari yig'ilish

BAYONNOMASI № _____

“17” may 2023-yil

Namangan shahar

Yig'ilish raisi

A.Turg'unov - Namangan shahar Kambag'allikni qisqartirish va
bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i v.b

Ishtirok etdi

Bo'lim boshlig'i o'rinbosari, bo'lim mutaxassislari, davlat
mehnat huquq inspektori va mas'ul hodimlari (ro'yhat
bo'yicha)

Bayonlashtiruvchi

X.Yuldasheva

KUN TARTIBIDAGI MASALA:

**O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik
vazirligining tizimida faoliyat yuritayotgan rahbar-xodimlarning huquqiy ongi va
madaniyatini oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni
shakllantirish, korrupsiyaviy holatlarni minimallashtirish maqsadida yuborgan
27.04.2023 yil kungi 01/00-03/20-2923- sonli xati muhokamasi.**

(A.Turg'unov, M.Qosimov, M.Maxmudov, M.Ataxodjayeve)

Yig'ilishda qayd etildiki bo'limda faoliyat yuritayotgan rahbar-xodimlarning
huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni
shakllantirish, korrupsiyaviy holatlarni minimallashtirish maqsadida muntazam ravishda
profilaktik tadbirlar o'tkazib kelinmoqda. Bundan tashqari maxsus tayyorlangan
bukletlar tizimdagi barcha tashkilotlarga tarqatildi va fuqorolar ko'rishiga qulay bo'lgan
joylarga osib qo'yildi, biroq o'tkazilgan tadbirlarga qaramasdan tizimda korrupsiyaviy
holatlar yuqoriligicha qolmoqda.

Jumladan: Respublika miqyosida joriy yilning 3-aprel kuni Sirdaryo viloyati
Guliston shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori N.N. yoshlarni kasbga
o'rgatish bilan shug'ullanuvchi MCHJ rahbaridan uning o'quv markazida tahsil
olayotganlarning darslarga qatnashish holatini monitoring qilmaslik va MCHJ faoliyati
bo'yicha tekshiruv o'tkazmaslik evaziga 300 AQSH dollari talab qilib, 1,400 ming
so'mni o'z xizmat xonasida olayotgan vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi idoralar
tomonidan ushlangan.

Joriy yilning 5-aprel kuni Jizzax viloyat Bandlik bosh boshqarmasida mas'ul lavozimda ishlagan Sh.Sh. Mirzacho'l tumani kasb-hunar markaziga tegishli mutaxassislik sertifikatini soxtalashtirgan holda 400 AQSH dollariga sotmoqchi bo'lib, oldindan fuqaroga 1,100 ming so'mini olayotgan vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan ushlangan.

Shuningdek, joriy yil 12-aprel kuni Yakkabog' tumanidagi mahallalardan birida hokim yordamchisi lavozimida ishlovchi S.S.shaxs o'zi norasmiy rahbarlik qiluvchi 2 ta MCHJga qurilish materiallari sotib olish bo'yicha bankdan ajratilgan 1,7 mlrd so'mlik imtiyozli kredit mablag'larini boshqalar bilan jinoiy til biriktirib, o'zlashtirish yo'li bilan talon-toroj qilganligi holati huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan aniqlangan.

Shahrisabz tumanidagi Qo'shchinor MFY fuqarosi S.B.ning o'zi foydalanib kelayotgan 5 gektar yer maydoni ausion savdolariga chiqib ketganligidan xabardor bo'lib, unga ushbu yer maydonining 50 sotixini o'ziga qoldirib berishi evaziga Qo'shchinor MFY hokim yordamchisi Y.S. 500 AQSH dollari olgan vaqtida huquqni muhofaza qiluvchi idoralar tomonidan ushlangan.

Xuddi shunday korrupsion xolatlar viloyatimiz miqyosida ham 2022 yil davomida yo'l ko'yilgan korrupsiyaviy xolatlar, jumladan: Namangan shaxar ABKMda "Namangan tikuvchi ayollar" ICh koorper-ativi 110 nafar fuqaroga 245.3 mln so'mlik subsidiya mablag'lari chiqarib berilgan.

2020 yil "Koronavirus" pandemiya davrida 18 nafar ishlamayotgan fuqarolarga 14,3 mln. so'm ish haqlari berilmasdan, 38 ta holatda 78,8 mln. so'm pul mablag'lari asossiz buyurtmachilarga chiqarib yuborilib, 18,4 mln. so'm ish haqlari asossiz to'lab yuborilib, jami 111,5 mln. so'm byudjet mablag'lari o'zlashtirish va rastrata qilish yo'li bilan talon-toroj qilingan.

Norin tuman ABKMda "Asr 555" MCHJ rahbari va shu bilan birga "Yuksak tomorqa xizmati 777" MCHJ birgalikda Yengil konstruksiyali subsidiya asosida issiqxona qurilishda 226 mln so'mlik byudjet mablag'lari maqsadsiz sariflagan,

Pop tuman ABKMda Namangan shahar, "NAMANGAN ARGO INVEST ISSIQXONA va TOMORQA XIZ-MATI" MCHJ rahbari N.Mirzaabdullayev bilan muayyan huquq beradigan rasmiy hujjatlarni soxtalashtirib, hujjatning qalbaki ekanligini bila turib, 93.0 mln so'm miqdorda talon-toroj qilingan.

Uychi tuman Bosh prokuratura huzuridagi Departament hamda DXXning Uychi tumani bo'limlari tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbirda, Uychi tuman Aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori S.A., 2 nafar fuqaroni ushbu markazga ishga qabul qilish evaziga o'z xizmat xonasida 200 AQSH dollari va 2,2 mln so'mni olgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan ushlangan. Shuningdek, olib borilgan tergovga qadar tekshiruvlar davomida S.A fuqaro X.dan 18 nafar fuqaroni rasmiy ishsizlar ro'yxatiga kiritib qo'yish uchun muqaddam 1,8 mln so'mini olganligi aniqlanib, shundan 100 AQSH dollari va 600 ming so'mni qaytarganligi prosessual tartibda rasmiylashtirilgan.

Yil davomida 680.0 mln so'm miqdoridagi jamg'arma mablag'larini o'zlashtirish yo'li bilan talon taroj qilganliklari aniqlangan va ushbu mablag'lar ayibdorlardan jamg'arma xisobiga undirilgan. Bandlik bosh boshqarmasi tizimda 9 nafar xodimlarga nisbatan jinoiy ish ko'rib chiqilib tegishli tartibda jazo choralari berilgan.

Yuqoridagilardan xolatlardan ko'rinib turibdiki tizim tashkilot rahbar va xodimlari o'rtasida profilaktik tadbirlar va targ'ibot tashviqot ishlarini kuchaytirish va har bir xodimlarni o'z vazifasiga vijdonan yondoshishi, karupsion jinoyatlarning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf qilish, jazo muqarrarligi xaqida tushintirish ishlarini kuchaytirish maqsadida yig'ilish,

QAROR QILADI:

1.O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 27-aprel kungi 01/00-03/20-2923-sonli xati ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Bo'lim Davlat mehnat huquq inspektori (A.Tojiboyev)ga bo'limda korrupsiyaning oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashishga jalb etilgan organlar bilan o'zaro aloqani yanada kuchaytirish. Korrupsiyaviy ishlarga moyilligi bo'lgan xodimlarni aniqlash, ushbu xodimlar bilan alohida ishlash targ'ibot ishlari olib borish, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan shaxslarni rag'batlantirishni yo'lga qo'yish vazifasi yuklatilsin.

3.Bo'lim ish yurituvchisi (X.Yuldasheva)ga faoliyat yuritayotgan har bir xodimlardan korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish, huquqbuzarliklar sodir etilishini oldini olish maqsadida kafolat xatlari va manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida deklaratsiya olish vazifasi yuklatilsin.

4.Ushbu bayonning ijrosini nazorat qilishni bo'lim boshlig'i o'rinbosari M.Qosimov zimmasiga yuklatilsin.

Yig'ilishni bayonlashtiruvchi:



X.Yuldasheva





